


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**60812100 – *Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi* bakalavriat
ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari**

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQLIGAN :

- Toshkent davlat agrar universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil « 21 » avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

t.r.		bet
1.	<i>60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1	<i>60812100– Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	<i>60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1	<i>60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2	<i>60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3	<i>60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4	<i>60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2	<i>60812100– Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2	<i>60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	9
2.3.3.	<i>60812100 –Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi</i> bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim dasturining tuzilishi.....	9
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	11
	Kelishuv varag‘i.....	12

60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining tasnifi

60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi.

Malaka talabi *60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalarining talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o‘qituvchilari;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota- onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2 60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, introduksiya qilingan dorivor o‘simliklar, ulardan oqilona foydalanish, farmatsevtika sanoatining dorivor o‘simliklar xom-ashyo mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash maqsadida ishlab chiqish ;

- farmatsevtika sanoatining dorivor o‘simliklar xom-ashyo mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda ishtirok etish;

- dorivor o‘simliklar yetishtirish va dastlabki qayta ishlash tizimida qo‘llaniladigan ishlab chiqarish jarayonlari;

- dorivor o‘simlik xom-ashyolarini tayyorlash, dastlabki qayta ishlash va saqlash hamda ishlash jarayonlarini optimallashtirish;

- ilmiy – tadqiqot jarayonlari;

- dorivor o‘simliklar yetishtirish va dastlabki qayta ishlash, xom – ashyo mahsulotlarini saqlash hamda ularga birlamchi ishlov berish korxonalari va tashkilotlarning boshqaruv tizimlariga doir masalalar bilan bog‘liq kasbiy sohalari majmuasini qamrab oladi.

1.2.2 60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxonalar va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;

- boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tadbiq etish, davlat va maxalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag‘batlantirish jarayonlari.

60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan majburiy va tanlov fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi. Bakalavriat yo‘nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.

- tashkiliy-boshqaruv
- loyiha tadqiqot;
- ilmiy-tadqiqot;
- amaliy ishlab chiqarish;

1.2.4 60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta’lim yo‘nalishi milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv hamda loyiha tadqiqot va amaliy ishlab chiqarish faoliyatida:

- dorivor o‘simliklar sohasida tegishli texnologiya va texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisobga olish va baholash;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;

- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;

- boshqaruv qarorni qabul qilish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanishni hisobga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va hayot faoliyati xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash jarayonlari monitoringini amalga oshirish;

- kasbiy muammolar yechimini topish;

- ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;

- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;

- birlamchi ishlab chiqarish bo‘g‘ini ishini tashkil qila olish va boshqarish;

- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak;

- dorivor o‘simliklarni yetishtirishda texnologik kartadan foydalanish;

- dorivor o‘simliklar sohasida samarali va resurs tejankor faoliyatni tashkil eta olish;

- dorivor o'simliklarni yetishtirishda va parvarishlash bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlari, agrotexnik tadbirlarning bajarilishi sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;
- ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash;
- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsiya qilish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;
- dorivor o'simliklar tabiiy resurslarini muhofaza qilish va hayot faoliyati xafsizligi qoidalariga rioya qilish;
- xizmat ko'rsatish sohasi me'yoriy- huquqiy hujjatlaridan foydalana olish;
- dorivor o'simliklar sohasida servis xizmati ko'rsata olish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- dala tajribalarida variantlar va takrorlanishlarni joylashtirish, kuzatuvlar o'tkazish;
- ilmiy ish hisoboti uchun ma'lumotlar tayyorlash;
- qaror qabul qilish, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ish samaradorligi va sifatiga javob berish;
- respublika hamda xorijda chop etilgan dorivor o'simliklar sohasiga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;
- dorivor o'simliklar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;
- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

2. 60812100 – Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- zaruriy gumanitar va tabiiy ilmiy fanlar asoslarini, fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga, dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy va matematik fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- dorivor o'simliklar mahsulotlari ishlab chiqarishda tegishli texnologiya va mehnat vositalardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy va mehnat resurslarini rejalashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonini boshqarish;

- boshqaruv qarorni qabul qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof muhitni muhofaza qilish va hayotiy faoliyat xavfsizligi, texnika xavfsizligi talablari asosida ishlab chiqarish jarayonlarini monitoringini yuritish;
- kasbiy muammolar yechimini topish;
- ijrochi jamoa ishini tashkil qilish;
- fikrlar xilma-xilligi sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish bo'g'ini ishini tashkil qila olish va boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish va nazorat qilish hamda ish natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak;
- dorivor o'simliklarni yetishtirish va dastlabki qayta ishlashda texnologik kartadan foydalanish;
- dorivor o'simliklarni generativ va vegetativ ko'paytirish;
- ishlab chiqarishida samarali va resurs tejankor faoliyatni tashkil eta olish;
- ishlab chiqarish jarayonlari va agrotexnik tadbirlarni, xom-ashyo tayyorlash, saqlash va dastlabkai qayta ishlash sifatini nazorat qilish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikalari va kommunikatsion vositalarni amaliyotda keng qo'llash;
- ilg'or texnologik jarayonlarni qo'llash;
- ilmiy asoslangan tizimlarni qo'llash va tavsianomalar berish;
- yangi samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va oqilona foydalanish;
- tabiiy resurslarni muhofaza qilish va hayotiy faoliyat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;
- dala tajribalarida variantlar va takrorlanishlarni joylashtirish, kuzatuvlar o'tkazish;
- ilmiy ish hisoboti uchun ma'lumotlar tayyorlash;
- dorivor o'simlikshunoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.
- istiqbolli dorivor o'simlik turlarini ochiq yerlarda plantatsiyasini, himoyalangan yerlardan foydalanish loyhasini ishlab chiqish va biologik materiallarni tayyorlash;
- loyihalashtirishda zamonaviy kommunikatsion, informatika va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;
- xizmat ko'rsatish sohasida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olish;
- dorivor o'simlikshunoslik dehqonchiligi sohasida servis xizmati ko'rsata olish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma – ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab – quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:
malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratilgan.

2.3.1. Kvalifikatsiya: agronom, dorishunos, texnolog.

2.3.2. 60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5280	176
Tanlov fanlar	1140	38
Malakaviy amaliyot	660	22
Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4

2.3.3. 60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5280	176	
1.01	O'EYTB1204	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	DINB1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	FALB3604	Falsafa	120	4	6
1.04	XJTNB1108	Xorijiy til	240	8	1,2
1.05	O‘T O‘SQB1104	O‘zbek (rus) tili: O‘zbek tilini sohada qo‘llash	120	4	1
1.06	JMSB1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.07	OMTB1104	Oliy matematika	120	4	1
1.08	ANFKBKB1108	Analitik, fizkolloid va bioorganik kimyo	240	8	1,2
1.09	BO‘FZB1108	Botanika va o‘simliklar fiziologiyasi	240	8	1,2
1.10	QXAKTB1204	Qishloq xo‘jaligida axborot-kommunikatsion texnologiyalar	120	4	2
1.11	DO‘FSB1110	Dorivor o‘simliklar florasi va sistematikasi	300	10	1,2
1.12	O‘IDO‘B1306	O‘zbekistonning istiqbolli dorivor o‘simliklari	180	6	3
1.13	O‘RMONB1304	O‘rmonchilik	120	4	3
1.14	TPAKB1308	Tuproqshunoslik va agrokimyo	240	8	3,4
1.15	XTDO‘B1310	Xalq tabobati dorivor o‘simliklari	300	10	3,4
1.16	DO‘UKB1310	Dorivor o‘simliklar urug‘chiligi va ko‘chatchiligi	300	10	3,4
1.17	DO‘RSB1304	Dorivor o‘simliklar reproduktiv strategiyasi	120	4	3
1.18	DO‘INDB1306	Dorivor o‘simliklar introduksiyasi	180	6	4
1.19	DO‘BEB1510	Dorivor o‘simliklar biologiyasi va ekologiyasi	300	10	5,6
1.20	FARGZB1510	Farmakognoziya	300	10	5,6
1.21	FARDO‘B1506	Farmakopeya dorivor o‘simliklari	180	6	5
1.22	DO‘RESB1606	Dorivor o‘simliklar resursshunosligi	180	6	6
1.23	DO‘YEIIASB1706	Dorivor o‘simliklarni yetishtirishda ilmiy izlanish asoslari	180	6	7
1.24	DO‘XATDQIT1708	Dorivor o‘simlik xom-ashyosini tayyorlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasi	240	8	7,8
1.25	DO‘ETB1712	Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi	360	12	7,8

1.26	TABDO'B1804	Tabiiy dorivor o'simliklar	120	4	8
1.27	KYETB1804	Kovrak yetishtirish texnologiyasi	120	4	8
2.00		Tanlov fanlari	1140	38	
2.00		Tanlov fanlari			3,4,5,6,7,8
		Jami	6420	214	
		Malakaviy amalyotlar	660	22	2,4,6,7,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	120	4	8
		Jami	780	26	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UO*K 633.88

Guruh T 55

OXS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

yetishtirish texnologiyasi, qayta ishlash, dorivor o'simliklar, farmokognoziya, fitopereparatlar texnologiyasi, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, malaka talablari, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), o'quv jarayoni, loyiha tadqiqot, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, ishlab chiqarish texnologik, tashkiliy-boshqaruv, ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti




Birinchi prorektor S.Y. Islamov

2023 yil " 10 " 07

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti



Direktor Sh.U. Yakubov

2023 yil " 21 " 08

M.O'.



Rektor K.S. Komilov

2023 yil " 17 " 07

M.O'.

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti

Guliston Davlat universiteti



Direktor S.A Arabov

2023 yil " 19 " 07

M.O'.



Rektor M.T. Xodjiyev

2023 yil " 18 " 07

M.O'.

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent vil.

“ 10 ” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, prof. S.Y.Islamov, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori, dotsent K.S.Komilov, Guliston Davlat universiteti rektori, prof. M.T.Xodjiyev, O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti direktori, S.A Arabov, birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60812100 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.


Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Andijon qishloq xo‘jaligi
va agrotexnologiyalar instituti
rektori, dotsent**



K.S.Komilov

**Guliston Davlat universiteti
rektori, professor**



M.T.Xodjiyev

**Toshkent davlat agrar universiteti
birinchi prorektori, professor**



S.Y.Islamov